

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/29.12.2022.I.111.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

OCHILOVA NARGIZA AKRAMOVNA

**DEHQON XO‘JALIKLARI VA AHOLINING TOMORQA YERLARIDA
MAHSULOT YETISHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH
YO‘LLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.04–Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Ochilova Nargiza Akramovna

Dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa yerlarida mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirish yo‘llari (Qashqadaryo viloyati misolida)..... 3

Ochilova Nargiza Akramovna

Пути повышения эффективности производства продукции в дехканских хозяйствах и на приусадебных землях населения (На примере Кашкадарьинской области)..... 27

Ochilova Nargiza Akramovna

Ways to increase the efficiency of production in dekhkan farms and on household plots of the population (on example of Kashkadarya region).....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati..... 57

Список опубликованных работ..... 57

List of published works 57

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/29.12.2022.I.111.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

OCHILOVA NARGIZA AKRAMOVNA

**DEHQON XO‘JALIKLARI VA AHOLINING TOMORQA YERLARIDA
MAHSULOT YETISHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH
YO‘LLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.04–Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2024

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Iqt1979 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qmii.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xamrayeva Sayyora Nasimovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xasanov Shavkat Tursunqulovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sultanov Baxodir Fayzullayevich

iqtisodiyot fanlari doktori, katta ilmiy xodim


Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD03/29.12.2022.I.111.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil «10» yanvar soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 180100, Qarshi shahri Mustaqillik ko'chasi 225-uy. Tel.: **75 221-09-23**, e-mail: qmii@qmii.uz, kiei_info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (91 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi shahri Mustaqillik ko'chasi 225-uy. Tel.: **75 221-09-23**).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «06» yanvar kuni tarqatildi.
(2024-yil 05.01 dagi № 01 raqamli reyestr bayonnomasi).



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligining mayda tovar ishlab chiqaruvchilari hisoblangan dehqon xo'jaliklari va aholining tomorqa yerlarida mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirib borish masalalari tobora murakkablik kasb etmoqda. "Dunyo aholisining 30 foizdan ortiq qismi me'yor darajasida ovqatlanmasligi, inson salomatligi uchun eng zarur mikroelementlar yetishmasligi muammosiga duch kelmoqda. Natijada 200 millionga yaqin o'smirlarda aqliy va jismoniy rivojlanishning ortda qolishi kuzatilmoqda"¹. Shu bilan birga, "2030-yilda jahon iqtisodiyoti tiklanishini hisobga olganda ham, 670 millionga yaqin aholi (dunyo aholisining 8 foizi) ocharchilikka duchor bo'ladi"². Bu, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga bo'lgan talabni kuchaytiradi. Natijada dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining mas'uliyatini orttirib, raqobat muhitini shakllantiradi.

Globalizatsiya sharoitida dunyo hamjamiyatida aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish asosida tarmoqning tashqi o'zgaruvchan muhitga moslashuvchan, turli xildagi innovatsiyalar va ilmiy-texnika taraqqiyotiga ta'sirchan bo'lishini taqozo etmoqda. Kichik hajmdagi yer maydonlarida vertikal qishloq xo'jaligi, biologik va organik ishlab chiqarishni tashkil etish, energiya tejevchi texnologiyalardan foydalanish, gidroponika, akvaponika va aeroponika usullarni joriy etish, raqamli texnologiyalardan (sun'iy intellekt, dron, Big Data) foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sohasidagi tuzilmaviy-tarkibiy o'zgarishlar, xususan, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini ko'p ukladli asosda rivojlantirish, sohani moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, sotuv tizimini rivojlantirish borasida maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bugungi kunda tomorqalardan unumli foydalanish, almashlab ekish, yerdan yiliga 2-3 marta hosil olishning yo'lga qo'yilishi natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari aholining ehtiyojlaridan ortib, mahalliy va dunyo bozorlariga chiqarilmoqda. Shu bilan birga "agrosanoat korxonalarini xomashyo mahsulotlari bilan ta'minlash va mahsulot ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravarga oshirish hamda aholi tomonidan tomorqalardan samarali foydalanilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish"³ vazifasi belgilangan. Biroq iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi qishloq xo'jaligida aholining tomorqa yerlarida mahsulotlar hajmini ko'paytirish bilan birga mahsulot sifatini oshirishni taqozo etadi. Xususan, "2023-yilda ham suv ta'minoti yaxshi bo'lgan 100 ming gektar qo'shimcha ekin maydonlari aholiga

¹ [www.fao.org https://www.fao.org/newsroom/detail/un-report-global-hunger-SOFI-2022-FAO/ru](https://www.fao.org/newsroom/detail/un-report-global-hunger-SOFI-2022-FAO/ru). Доклад ООН: В 2021 году число голодающих в мире достигло 828 млн.

²O'sha yerda.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, <https://lex.uz/docs/5841063>.

ajratilib, qariyb 350 mingta yangi dehqon xo‘jaligi tashkil etiladi”⁴. Ushbu vazifalarning samarali ijrosi dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining iqtisodiy faoliyatini o‘rganish va mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 10-sentabrdagi PQ-373-son “Dehqon xo‘jaliklari tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash orqali aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 27-yanvardagi PQ-4964-son “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-yanvardagi 53-son “Dehqon xo‘jaliklari va aholi tomorqalari yer uchastkalaridan yanada samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.«Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini, jumladan, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va istiqbollarni belgilash masalalari ko‘plab xorijlik olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, Uta Priegnits, K.Yu.Voloshenko, A.A.Mixailova, A.Bobok, S.A.Belozyorov, Z.Temirova⁵ va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida, asosan qishloq xo‘jaligi sohasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi u yoki bu mamlakatlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, konseptual yondashuv amalga oshirilgan. Shuningdek, O.A.Sapova, Y.V.Saregorodseva, D.A.Lyubimov⁶ning ilmiy ishlarida qishloq xo‘jaligi sohasining iqtisodiy uslubiyyotini va axborotlar bazasini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr <https://president.uz/uz/lists/view/5774>.

⁵ Uta Priegnits. Understanding seed potato selection practices in Uganda // Joint PhD thesis, University College Cork, Ireland, and Wageningen University, Wageningen, Netherlands (2019); Voloshenko K.Y., Mikhailova A.A. Innovative factors and conditions of sustainable development of rural territories. // “Innovations in the development of rural territories”. Kaliningrad, Russia June 21, 2012, pp-79-87; Бобок А. Развитие малые формы хозяйствования // АПК: экономика, управление: Теоретический и научно-практический журнал / гл. ред. И.Г.Ушачев. – 2008.– №9.– С. 37-38; Белозёров С.А. Финансы домашнего хозяйства: сущность, структура, управление. Автореф. дисс. док. экон. наук. – Санкт-Петербург, 2006. – 35 с.; Темирова З. Крестьянские (фермерские) хозяйства Юга России: состояние и перспективы // АПК: экономика, управление: Теоретический и научно-практический журнал / гл. ред. И.Г.Ушачев. – 2008.– №8.– С. 38-40.

⁶ Цапова О.А. Государственное управление развитием личных хозяйств населения (На материалах Республики Казахстан): Дис. канд. экон. наук: 08.00.05 – Новосибирск, 2002. – 171 с.; Царегородцева Е.В.

Respublikamizning dehqon xo‘jaliklarida, aholining tomorqa yerlarida mahsulot yetishtirish va hududlarning salohiyatidan kelib chiqqan holda rivojlantirishning ayrim jihatlari tadqiq etilgan. Bu borada O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini iqtisodiy rivojlantirish va tuzilmaviy-tarkibiy o‘zgarishlarni o‘rganish iqtisodchi olimlardan Q.A.Chariyev, N.S.Xushmatov, B.B.Berkinov, R.X.Ergashev, S.S.Gulyamov, S.N.Xamrayeva, G.T.Samiyeva, Sh.Yu.Azizov⁷ va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan.

Shunday bo‘lsa-da, dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa yerlarida mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirish muammolariga yetarlicha o‘rganilmaganligi, ekin maydonlarini optimal joylashtirishda “Smart” texnologiyalaridan foydalangan holda innovatsion usullarni joriy etish, raqamli texnologiyalarni qo‘llash masalalari atroflicha tadqiq etilmaganligi dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa yerlarida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga doir chuqur ilmiy tadqiqot olib borishni taqozo etadi va Dissertatsiya mavzusini tanlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IZ20170928247 “Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida uy xo‘jaliklarida tadbirkorlik faolligini oshirishning iqtisodiy va moliyaviy mexanizmini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa yerlarida mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda dehqon va aholi tomorqa xo‘jaliklarining milliy agrar sektordagi tutgan o‘rnini, o‘ziga xos xususiyatlarini hamda nazariy asoslarini yoritish;

dehqon va aholining tomorqa xo‘jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

Управление развитием личных подсобных хозяйств в аграрном секторе экономики: на материалах Пермского края: диссер. кандидата экономических наук: 08.00.05 – Перм, 2012. – 168 с.; Любимов Д.А. Управление развитием личных подсобных хозяйств населения: диссертация кандидата экономических наук: 08.00.05 – Ижевск, 2011. – 167 с.

⁷ Chariyev Q.A. Fermer va dehqon xo‘jaliklarini kooperatsiya jarayoniga jalb qilish.// Agroiqtisodiyot, 2017. №1. – B. 22-30; Xushmatov N.S. Dehqon (fermer) xo‘jaliklarini tashkil etish samaradorligi va ularning boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlarini takomillashtirish. i.f.n... diss. avt. – T., 1994. – 22 b.; Berkinov B.B., Akhmedov UQ. Households development and family income growth prospects. (p. 144) - Tashkent: Science and Technology, 2013; Khidirovich E. R. Application of Digital Technologies in Agriculture // European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 3. – С. 199-203; Gulyamov S.S. Qishloq xo‘jaligini raqamli transformatsiyasida innovatsiyalarni jadallashtirish istiqbollari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5 2021; Xamrayeva S.N. Dehqonchilik tarmog‘ini innovatsion rivojlantirish istiqbollari //Economics and Innovative Technologies. – 2022. – T. 10. – №. 5. – S. 194-203; Samiyeva G.T. Dehqon xo‘jaliklarida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash yo‘nalishlari. I.f.d. (PhD)... diss. avt., 2019. Azizov Sh.Yu. Dehqon xo‘jaliklarida qo‘shilgan qiymatni yaratish va oshirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. (PhD)... diss. avt., 2022.

dehqon xo'jaliklari va aholi tomorqa yer maydonlarida dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hozirgi holatini aniqlash, anketa so'rovnoma asosida ularning faoliyatni baholash va olingan natijalar asosida SWOT-tahlil o'tkazish;

innovatsion va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etgan xo'jaliklarning innovatsion salohiyatini aniqlash asosida mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari tomorqa xizmatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini optimal joylashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirishda "Smart agriculture" raqamli texnologiyalarini joriy etishni ilmiy asoslash;

mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni modellashtirish va prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo viloyatidagi dehqon xo'jaliklari va aholining tomorqa yerlarida dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini raqamli iqtisodiyot sharoitida dehqon xo'jaliklari va aholi tomorqa yerlarida mahsulot ishlab chiqarish jarayonidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil, induksiya va deduksiya, anketa so'rov, monografik kuzatuv, statistik guruhlash, SWOT-tahlil, regression va korrelyatsion tahlil hamda prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tomorqa yer egalari va dehqon xo'jaliklari innovatsion salohiyatini baholashning uslubiy yondashuvi hududning tuproq-iqlim sharoiti va ishlab chiqarishni tashkil qilish xususiyatlariga ko'ra takomillashtirilib, unga ko'ra innovatsion salohiyat "yuqori" (Shahrisabz, Kasbi, Yakkabog' tumanlari), "o'rta" (Kitob, Dehqonobod, Qamashi, Koson, Nishon tumanlari) va "past" (Mirishkor tumani) darajalari asoslangan;

mahsulot ishlab chiqarish jarayonidagi ko'chatchilik issiqxonasi, kichik texnika parki, sovutkichli omborxonasi, quritish, saralash va qadoqlash xizmatlarini qamrab olgan "Tomorqa xizmati" klasterini tashkil etishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

dehqon va tomorqa xo'jaliklari faoliyatini barqaror rivojlantirishda agrobiznes kichik shakllarini va eko-korxonalarini ustuvor tashkil etish, ijtimoiy sheriklikka ko'ra hamkorlikni jadal rivojlantirish hamda ishlab chiqarishning "Smart agriculture" modelining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi asoslangan;

Qashqadaryo viloyati ichki iste'mol hajmi, eksport hajmi va aholi bandligi ko'rsatkichlariga ko'ra dehqon xo'jaliklari va tomorqa yerlarida mahsulot ishlab chiqarishning 2024-2027-yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilarda o'z aksini topadi:

qishloq xo'jaligining barqaror o'sishini ta'minlashda dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda tutgan o'rni aniqlangan;

ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganilgan holda O'zbekiston sharoitida ularni joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Qashqadaryo viloyati dehqon xo'jaliklari va aholining tomorqa xo'jaliklari o'rtasida o'tkazilgan anketa so'rovnoma natijalari asosida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llari asoslab berilgan;

Qashqadaryo viloyatida aholi sonining o'sishi hisobiga ichki iste'mol hajmi oshishi va xalqaro integratsiya jarayonida eksport mahsulotlari hajmi o'sib borishini hisobga olgan holda, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda dehqon xo'jaliklari va aholining tomorqa yerlarida mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirib borish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi, Qashqadaryo viloyati fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining davriy hisobotlaridan olinganligi, taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o'tganligi, shuningdek, olingan natijalardan amaliyotda foydalanilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, hududlarda dehqon va tomorqa xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha uslubiy ahamiyatga molik bo'lgan takliflarning ishlab chiqilgani subyektlar faoliyatini tashkil etish, servis xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish, sohani makrodarajada barqaror rivojlantirish jarayonini rejalashtirish va modellashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining "Hududlarni 2023—2027-yillarda rivojlantirish dasturlari", "2023—2025-yillarda Qashqadaryo viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash" davlat dasturlarini amalga oshirishda hamda oliy ta'lim tizimida "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", "Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti", "ASM iqtisodiyoti", "Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi" kabi fanlarning o'quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

hududning tuproq-iqlim sharoiti va ishlab chiqarishni tashkil qilish xususiyatlariga ko'ra tomorqa yer egalari va dehqon xo'jaliklari innovatsion salohiyatini baholashning uslubiy yondashuvi takomillashtirilib, unga ko'ra

innovatsion salohiyat “yuqori”, “o‘rta” va “past” darajalari bo‘yicha takliflar O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tomonidan “Dehqon xo‘jaliklari tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash orqali aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha Yo‘l Xaritani”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2023-yil 10-noyabrdagi 01/03-2309-son ma‘lumotnomasi). Natijada Qashqadaryo viloyatida innovatsion salohiyat Shahrisabz, Yakkabog‘ va Kasbi tumanlarida “yuqori” ($ISI \geq 13,7$), Nishon, Koson, Qamashi, Kitob va Dehqonobod tumanlarida “o‘rta” ($7,05 < ISI < 13,7$) va Mirishkor tumanida “past” ($ISI \leq 7,05$)ga ko‘ra maqsadli chora-tadbirlar tashkil qilingan;

mahsulot ishlab chiqarish jarayonidagi ko‘chatchilik issiqxonasi, kichik texnika parki, sovuqkichli omborxonasi, quritish, saralash va qadoqlash xizmatlarini qamrab olgan “Tomorqa xizmati” klasterini tashkil etish taklifi Qashqadaryo viloyati hokimining 2021-yil 24-dekabrda 730-4-0-Q/21-son va Shahrisabz tumani hokimining 2021-yil 20-mayda 93-4-67-Q/21-son qarorlari bilan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2023-yil 10-noyabrdagi 01/03-2309-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklif Qarshi tumanida “Dilziyo tomorqa xizmati”, Shahrisabz tumanida “Azamat Sattarov Garden Services” MChJ va “Yashil kesh agrotomorqa” MChJ, Chiroqchi tumanida “Chiroqchi sifatli tomorqa xizmati ko‘rsatish” MChJ tomorqa xizmati klasterlari sinergetik samaradorligining 50-60 foizga oshishiga muayyan darajada xizmat qilgan;

dehqon va tomorqa xo‘jaliklari faoliyatini barqaror rivojlantirishda agrobiznes kichik shakllarini va eko-korxonalarini ustuvor tashkil etish, ijtimoiy sheriklikka ko‘ra hamkorlikni jadal rivojlantirish hamda ishlab chiqarishning “Smart agriculture” modelining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi taklifi O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining tizim tashkilotlari amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2023-yil 10-noyabrdagi 01/03-2309-son ma‘lumotnomasi). Natijada Qarshi, Koson va Nishon tumanlarida innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish asosida dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa yerlarida dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishning iqtisodiy ko‘rsatkichi 40-50 foizga oshgan;

Qashqadaryo viloyati ichki iste‘mol hajmi, eksport hajmi va aholi bandligi ko‘rsatkichlariga ko‘ra dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yerlarida mahsulot ishlab chiqarishning 2024-2027-yillarga mo‘ljallangan prognoz parametrlaridan “Qashqadaryo viloyatini 2023-2025-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2023-yil 10-noyabrdagi 01/03-2309-son ma‘lumotnomasi). Taklifning joriy qilinishi ichki imkoniyatlardan maqsadli foydalanishga ko‘ra dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer maydonlarida mahsulot ishlab chiqarish hajmini 2027-yilga borib 46 foizga ko‘payishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha asosiy natijalar 29 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik Dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta, shundan 1 ta xorijiy, 8 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 122 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi asoslab berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Dehqon xo'jaliklari va aholining tomorqa yerlarida mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan **birinchi bobida** O'zbekiston Respublikasida dehqon xo'jaliklari va aholining tomorqa xo'jaliklarini rivojlantirish bosqichlari va nazariy-huquqiy asoslari, dehqon xo'jaliklarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, tutgan o'rni va o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, dehqon va tomorqa xo'jaliklarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasidan foydalanish yo'nalishlari yoritib berilgan.

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirish maqsadida, bir qator davlat dasturlari doirasida ko'rilayotgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari soni ko'payib, mamlakat bo'yicha xaridorgir qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tobora kengaymoqda. Jumladan, 2023-yil 1-yanvar holatida respublika bo'yicha dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari soni 5548,9 ming taga yetib, ularga ajratilgan jami ekin maydonlari 495,6 ming gektarni tashkil etgan⁸.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, 2022-yilda 2010-yilga nisbatan dehqon xo'jaliklari sonida 16,2 foiz, ularga birlashtirilgan yer maydonida esa, 5,1 foizga o'sishni ko'rish mumkin. Ulardagi band aholi soni 2010-yilda 1432,5 ming kishini tashkil etgan holda, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 1641,7 ming kishiga yetgan, ya'ni 14,6 foizga ko'paygan. Jami qishloq xo'jaligida band bo'lganlar tarkibida dehqon xo'jaliklarining ulushi 2022-yilda 38 foiz bo'lib, 2010-yilga nisbatan 6 foizga ko'pligi aniqlandi. Barcha toifadagi xo'jaliklarga nisbatan dehqon

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.

xo‘jaliklarida o‘rtacha hosildorlik 2022-yilda sabzavotda 44,1 s/ga, kartoshkada 1,2 s/ga, polizda 17,4 s/ga, mevada 37,1 s/ga, uzumda 67,2 s/ga yuqori bo‘lgan.

Xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘plab mamlakatlarda (Rossiya, Belarus, Moldova, Ukraina) o‘xshash huquqiy maqomga ega “shaxsiy yordamchi xo‘jalik” tushunchasi mavjud bo‘lib, xo‘jalik faoliyatini tartibga solishga qaratilgan maxsus yaxlit qonunlar qabul qilingan. Ahamiyatli jihati, mazkur qonunlarda shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarda mahsulotlar yetishtirish va ularni realizatsiya qilish tadbirkorlik faoliyati hisoblanmaydi.

1-jadval.

Ayrim xorijiy davlatlarning qishloq xo‘jaligida kichik xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ulushi (2021-yil)⁹

AQShda kichik fermer xo‘jaliklarining ulushi, %					
	Bug‘doy	Qand lavlagi	Mevalar	Sabzavotlar	Kartoshka
Kichik qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilar	1.2	75	98	80	28
Boshqa xo‘jaliklar	98.8	25	2	20	72
Germaniyada kichik fermer xo‘jaliklarining ulushi, %					
Kichik qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilar	2	35	88	90	-
Boshqa xo‘jaliklar	98	65	12	10	
Rossiyada krestyan xo‘jaliklarining ulushi, %					
Kichik qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilar	-	60	98	95	40
Boshqa xo‘jaliklar	100	40	2	5	60
Yaponiyada kichik tomorqa xo‘jaliklarining ulushi, %					
Kichik qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilar	40.2	-	90.2	82	49
Boshqa xo‘jaliklar	59.8	-	9.8	18	51

Tahlillarga ko‘ra, AQShda yetishtirilayotgan qand lavlagining 75 foizi, mevaning 98 foizi, sabzavotning 80 foizi va kartoshkaning 28 foizi, Germaniya, Rossiya va Yaponiya mamlakatlarida esa ishlab chiqarilgan meva va sabzavot mahsulotlarining 80-90 foizi mayda qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilar hissasiga to‘g‘ri keladi (1-jadval).

Dissertatsiyaning “**Dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa yerlarida mahsulot yetishtirishning hozirgi holati**” deb nomlangan ikkinchi bobida Qashqadaryo viloyatida dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer maydonlarida dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning hozirgi holati, iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili, tumanlar kesimida anketa-so‘rov natijalari asosida

⁹ https://dev.abcdef.wiki/wiki/Food_and_Agriculture_Organization_Corporate_Statistical_Database. Food and Agriculture Organization Corporate Statistical Database.

SWOT-tahlil amalga oshirilgan, hududlar kesimida xo‘jaliklarning innovatsion salohiyati indeksi aniqlangan.

Tahlillarga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo‘jalik yuritish shakllari bo‘yicha 2010-yilda 62,5 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2022-yilga borib 71,1 foizga etgan. 2010—2022-yillar mobaynida dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa yer uchastkalari soni muntazam ortib borgani, natijada bir dehqon xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan yer maydoni 2010-yilda 1,03 gektarni tashkil etgani holda, 2022-yilga borib bu ko‘rsatkich 0,58 gektarga kamaygan. Buning asosiy sababi dehqon xo‘jaliklari sonining keskin ortishi, foydalanilmayotgan bo‘sh yerlarni auksion orqali dehqon xo‘jaligi sifatida berilishidir.

Tadqiqot jarayonida dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda mavjud muammolarni aniqlash maqsadida 200 ta dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari ortasida so‘rovnoma o‘tkazildi (2-jadval).

2-jadval.


Qashqadaryo viloyati dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa xo‘jaliklarida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari (2022-yil)¹⁰

	Savollar mazmuni	Javoblar, % (jami respondentlar 200 nafar)		
		Ha	Yo‘q	Javob yo‘q
1	Mahsulot yetishtirish jarayonida innovatsion usullardan foydalanasizmi?	20	75	5
2	Urug‘lik va ko‘chatlarni yetkazib berishda “Tomorqa xizmati”dan foydalanasizmi?	5	70	25
3	Mahsulot yetishtirish jarayonida yillik daromad xarajatni qoplaydimi?	73	22	5
4	Xo‘jalikda zamonaviy agrotexnikalar bilan ta‘minlanish darajasi qoniqarlimi?	45	45	10
5	Siz faoliyat yuritayotgan xo‘jalikda soliqlar bilan muammolar bormi?	25	65	10
6	Hosildorlik darajasi qoniqarli, deb hisoblaysizmi?	65	25	10
7	Yuqori iqtisodiy samaradorlikka yerishish uchun agrotexnik tadbirlar qo‘llaysizmi?	90	5	5
8	Mahsulotni sotish bilan bog‘liq muammolar mavjudmi?	52	43	5
9	Xo‘jalikda faoliyat yuritish uchun ilmiy-amaliy bilimlar yetarlimi?	78	21	1
10	Mahsulot yetishtirish jarayonida xorijiy tajribadan foydalanasizmi?	19	76	5
11	O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi va “Tomorqa xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunlari bilan tanishmisiz?	46	38	16
12	Xo‘jalikka qarashli yerning unumdorlik darajasi qoniqarlimi?	58	37	5

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning faqat 20 foizi mahsulot yetishtirishda innovatsion usullardan foydalanishini bildirgan va hozirgi kunda

¹⁰ Qashqadaryo viloyati tumanlarida faoliyat yuritayotgan 200 ta dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari orasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari.

aksariyat respondentlar qishloq xo‘jaligida qo‘llanilayotgan innovasion usullar haqida ma‘lumotga ega emas, degan fikrga kelish mumkin. “Mahsulot yetishtirish jarayonini boshlash uchun urug‘lik va ko‘chatlarni yetkazib berishda “Tomorqa xizmati”dan foydalanasizmi” degan savolga respondentlarning 5 foizi “ha” deb javob bergan bo‘lsa, 70 foiz respondent “yo‘q” deb javob bergan. Ya‘ni aksariyat dehqon xo‘jaliklari va tomorqa egalari urug‘lik va ko‘chatlarni o‘tgan yilgi hosildan foydalanishmoqda yoki bozor rastalaridan xarid qilishmoqda (1-rasm).



1-rasm. Qashqadaryo viloyati dehqon va aholi tomorqa xo‘jaliklarida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari tahlili¹¹, foiz.

Innovatsiyalar qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishda asos bo‘ladi, mahsulotning raqobatbardoshligini va xo‘jalikning eksport salohiyatini oshiradi. Demak, to‘g‘ri tanlangan innovatsiya yo‘nalishi dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yuksaltiradi, balki uning agrar sektordagi ulushini oshiradi. Qolaversa, buning natijasida xo‘jaliklarning qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarish bo‘yicha tajribasi va ishchi xodimlarning malakasi oshadi, shaxsiy mablag‘i ko‘payadi, ularning ilmiy tadqiqot institutlari, tomorqa xizmati va boshqa ilmiy markazlar hamda xalqaro agrar tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari mustahkamlanadi.

Nishon tumani “N.Qodirov” tomorqa xo‘jaligida olib borilgan monografik tadqiqotlarga ko‘ra, poliz ekinlarini an‘anaviy va vertikal ishlab chiqarishni joriy etishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlil etilgan (3-jadval). Tahlil natijalariga ko‘ra, poliz ekinlarini innovatsion usul orqali yetishtirishda iqtisodiy

¹¹ So‘rovnoma natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

samarasi yuqori bo'lishi aniqlandi, bunda an'anaviy usulga nisbatan rentabellik darajasi 5 barobarga ko'proq ekanligi hisoblab chiqildi.

3-jadval.

Nishon tumani "N.Qodirov" tomorqa xo'jaligida an'anaviy va innovatsion usulda poliz mahsulotlari ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi¹² (2022-yil)

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	An'anaviy usulda	Innovatsion usulda (vertikal ishlab chiqarish)	Farqi, +/- (ko'p)
1	Ekin maydoni	sotix	8	7	-1
2	Jami xarajatlar, sh.j.	mln.so'm	28,12	17,05	-11,07
-	1 sotixga sarflangan xarajatlar	mln.so'm/sotix	3,52	2,4	-1,12
2.1	Ekish jarayonida	mln.so'm	9,21	5,1	-4,11
2.2	Sug'orish jarayonida	mln.so'm	11,4	7,85	-3,55
2.3	Yig'ib olish jarayonidagi yo'qotishlar hisobidan	mln.so'm	7,51	x	x
2.4	Innovatsion texnologiyani joriy etish bilan bog'liq xarajatlar	mln.so'm	x	4,1	x
3	Olingan daromad	mln.so'm	39,75	52,14	12,39
4	Sof foyda	mln.so'm	11,63	35,09	23,46
5	Rentabellik	%	41,4	205,8	164,4
6	Kiritilgan innovatsion texnologiya hisobidan olingan qo'shimcha sof foyda	mln.so'm	x	23,46	23,46
7	Innovatsion texnologiyaning iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti		x	5,7	x
8	Innovatsion texnologiyani qoplash muddati	oy	x	2 oy	x

Tadqiqot davomida so'rovnomada ishtirok etgan dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari orasidan innovatsion texnologiyalarni qo'llagan respondentlar tanlab olinib, ular 60 nafarini tashkil etgan, innovatsion salohiyatini baholash maqsadida "Innovatsion rivojlanish indeksi" aniqlab chiqildi.

Tadqiqot davomida dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarning innovatsion salohiyati quyidagi ko'rsatkichlar asosida baholab chiqildi:

- dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari hamda oila a'zolarining ma'lumoti va malaka darajasi;
- ishlab chiqarish faoliyatida yangi qishloq xo'jaligi texnikasi va uskunalardan foydalanish holati;
- ishlab chiqarishda turli innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi;
- xo'jalikda kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalaridan foydalanish holati;

¹² Monografik tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

- mahsulot ishlab chiqarishning tovarlilik darajasi, qayta ishlash jarayoni va rentabellik darajasi bo'yicha alohida baholab chiqildi.

Umumiy innovatsion salohiyat indeksini aniqlashda har bir indikator "salmog'ini aniqlash koeffitsiyenti" orqali tuzatishlar kiritildi va beshta indikatorning yig'indisi hisoblab chiqildi. Bunda har bir ko'rsatkich bo'yicha innovatsion indikator yig'indisi (ΣII_i) quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\Sigma II_i = II_1 * k_1 + II_2 * k_2 + II_3 * k_3 + \dots II_n * k_n \quad (1)$$

Bunda: II_1, II_2, II_n – innovatsion indikator tarkibidagi ko'rsatkichlar;

k_1, k_2, k_n – ko'rsatkich salmog'ini aniqlash koeffitsiyenti.

O'rganilayotgan respondentlar uchun yuqorida tavsiflangan usul bo'yicha xo'jaliklarning innovatsion indikator ko'rsatkichlari aniqlab chiqildi (4-jadval):

4-jadval.

Dehqon xo'jaliklari va aholi tomorqa xo'jaliklarining innovatsion indikatorlari (2017 – 2022-yillar bo'yicha o'rtacha)¹³

Hududlar	Respondentlar soni (60 nafar)	Ma'lumoti bo'yicha innovatsion indikator	Moddiy-texnik ta'minot indikatorlari	innovatsion texnologiyalardan foydalanish indikatorlari	AKTdan foydalanish indikatorlari	Samaradorlik ko'rsatkichlari indikatorlari
Shahrisabz	12	7,47	2,18	8,14	1,94	8,75
Kasbi	4	5,78	0,98	4,55	0,64	3,06
Yakkabog'	11	3,46	0,88	4,81	0,71	4,81
Dehqonobod	6	5,09	0,88	4,11	0,71	1,75
Kitob	6	3,46	1,3	3,5	0,52	3,23
Qamashi	7	3,28	0,48	2,01	0,3	2,88
Koson	7	3,04	0,4	2,19	0,9	2,27
Nishon	4	2,79	0,5	3,06	0,78	1,66
Mirishkor	3	2,3	0,55	1,23	0,6	2,19

Aniqlangan ko'rsatkichlarning har birining innovatsion salohiyat indeksiga ta'sirini farqlash, shuningdek, so'rov natijasida olingan natijalarni optimallashtirish va o'rganilayotgan xo'jaliklarning o'rtacha innovatsion salohiyat indeksini aniqlash uchun tuzatish koeffitsiyentlari miqdori ishlab chiqildi. Har bir tekshirilayotgan xo'jaliklar uchun innovatsion salohiyat indeksi (ISI)ni quyidagi formula asosida aniqlash taklif etildi:

$$ISI = \sum_{i=1}^5 I I_i * \alpha_i \quad (2)$$

Bunda: ISI – o'rganilayotgan respondentlarning innovatsion salohiyat indeksi;

α_i – i - turdagi innovatsion indikatorning i -salmog'ini belgilovchi koeffitsiyent miqdori.

Mazkur formulani qo'llashda, asosan, ekspert usulidan foydalangan holda, xo'jaliklarning innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat ko'rsatuvchi ko'rsatkichlarning salmog'ini yuqori tuzatish koeffitsiyenti bilan belgilashni taklif etdik. Tadqiqotda innovatsion salohiyat indeksini baholashda dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari hamda oila a'zolarining bilim darajasi, malakasi yoki ularda

¹³ So'rovnoma natijalari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqildi.

mavjud qishloq xo‘jaligi texnikalarining holati kabi ko‘rsatkichlarning salmog‘ini minimallashtirish, xo‘jaliklarda joriy etilgan innovatsiyalar hamda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tovarlilik, rentabellik darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning xo‘jalik yurituvchi subyektlarning innovatsion salohiyatiga ta‘siri katta ekanligi hisobga olingan va ularning salmog‘ini maksimallashtirish lozimligidan kelib chiqib, innovatsion indikatorlarni tuzatish koeffitsiyentlarini quyidagi qiymatlar asosida optimallashtirishni taklif etdik:

$$\alpha_1 = 0,1; \alpha_2 = 0,1; \alpha_3 = 0,35; \alpha_4 = 0,1; \alpha_5 = 0,35.$$

Tahlillarga ko‘ra, tomorqa yer egalari va dehqon xo‘jaliklari innovatsion salohiyatini baholashning uslubiy yondashuvi hududning tuproq-iqlim sharoiti va ishlab chiqarishni tashkil qilish xususiyatlariga ko‘ra, Shahrisabz tumanida joylashgan dehqon va aholi tomorqa xo‘jaliklarining innovatsion salohiyat indeksi yuqori ekanligi aniqlandi va 27,82 ni tashkil etdi. Shahrisabz tumanida tanlab olingan respondentlar ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishning eng yuqori darajasi, hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish va moddiy-texnika ta‘minoti bo‘yicha ham eng yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etgan.

Olingan natijalarni hududiy darajalarga ekstrapolyatsiya qilish taklif etilayotgan metodikaga ko‘ra, aniqlangan ISI innovatsion rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettirdi. Unga asosan, innovatsion salohiyat indeksi qiymati 7,05 dan oshmaydiganlar innovatsion salohiyati past bo‘lgan xo‘jaliklar (Mirishkor tumani), 7,05 dan 13,7 gacha bo‘lganlar o‘rtacha innovatsion salohiyatga ega bo‘lgan subyektlar (Nishon, Koson, Qamashi, Kitob va Dehqonobod tumanlari) va 13,7 dan katta ko‘rsatkichga ega bo‘lganlar innovatsion salohiyati yuqori bo‘lgan xo‘jaliklar (Shahrisabz, Kasbi va Yakkabog‘ tumanlari) hisoblanadi (5-jadval).


5-jadval.

Innovatsion salohiyat indeksi asosida xo‘jaliklarning guruhlanishi¹⁴

Ko‘rsatkichlar	Innovatsion salohiyat indeksi	Hududlar
Yuqori innovatsion salohiyatga ega bo‘lgan xo‘jaliklar	$ISI \geq 13,7$ dan katta	Shahrisabz, Kasbi, Yakkabog‘
O‘rtacha innovatsion salohiyatga ega bo‘lgan xo‘jaliklar	$7,05 < ISI < 13,7$	Nishon, Koson, Qamashi, Kitob, Dehqonobod
Past innovatsion salohiyatga ega bo‘lgan xo‘jaliklar	$ISI \leq 7,05$	Mirishkor

Xo‘jaliklar ISI ning hududlar kesimida guruhlanishi natijasida olingan tahlillarga ko‘ra, yuqori innovatsion salohiyatga ega bo‘lgan xo‘jaliklar, asosan, uzum va meva mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lib, nafaqat yetishtirish, balki ishlab chiqargan mahsulotlarini qayta ishlashga ham e‘tibor qaratgan, ya‘ni mahsulot ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash darajasi yuqori.

¹⁴ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



2-rasm. "Tomorqa xizmati" klasterining faoliyat ko'rsatish modeli¹⁵.

¹⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning **“Qashqadaryo viloyatining dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa yerlarida mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida dehqon xo‘jaliklari va aholi tomorqa yerlarida mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirishda tomorqa xizmatlarini takomillashtirish, ishlab chiqarish jarayoniga raqamli Smart-texnologiyalarni joriy etish hamda Qashqadaryo viloyati dehqon xo‘jaliklarida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmining 2027-yilgacha mo‘ljallangan istiqbol ko‘rsatkichlari asoslangan.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, viloyatda tashkil etilgan aksariyat “Tomorqa xizmati” MChJ dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari etarli darajada xizmat ko‘rsatmay kelmoqda. Buni tadqiqot davomida olingan so‘rovnoma natijalaridan ham ko‘rish mumkin. Shu sababli DX va ATYE¹⁶ga mahsulot ishlab chiqarish jarayonidagi ko‘chatchilik issiqxonasi, kichik texnika parki, sovutkichli omborxonasi, quritish, saralash va qadoqlash kabi xizmatlarini qamrab olgan “Tomorqa xizmati” klasterini tashkil etish maqsadga muvofiq (2-rasm).

Mazkur klasterlarni tashkil etish DX va ATYEga resurslar va ma‘lumotlardan foydalanish imkoniyatini oshirish, yirik korxonalar qaramlikni kamaytirish, innovatsiyalar va texnologik rivojlanishni rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va qishloq joylarda daromadlarni oshirishga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida, aholining shaharlarga migratsiyasini kamaytirishi va mamlakatda iqtisodiy faoliyatning bir tekis taqsimlanishiga yordam berishi mumkin.

“Tomorqa xizmati” klasteri – bu DX va ATYEga hamda qishloq xo‘jaligiga oid xizmatlar ko‘rsatuvchi turli tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik shaklidir. Klaster doirasida korxonalar DX va ATYEga foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan bir qator xizmatlarni ko‘rsatish uchun kuchlarini birlashtiradi.

Klasterlarni tuzishdan asosiy maqsad DX va ATYE faoliyati samaradorligini, raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish. Klaster doirasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar tajriba, resurslar, texnologiyalar va axborot almashadi, shuningdek umumiy maqsad – ishlab chiqarish sharoitlarini yaxshilash va qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun sifatli xizmatlar ko‘rsatish yo‘lida hamkorlik qiladi.

“Tomorqa xizmati” klasteri tuzilmasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan turli elementlarni o‘z ichiga oladi. Dehqon va tomorqa yer egalari xizmat ko‘rsatish klasterini yaratish va rivojlantirish davlat, tadbirkorlik hamjamiyatlari, ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan muvofiqlashtirilgan harakatlarni talab qiladi. Shu bilan birga shuni ta‘kidlab o‘tish lozimki, klasterning tuzilishi moslashuvchan bo‘lishi va har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ishlab chiqarish faoliyatining ixtisoslashuvini hisobga oladi.

Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda ko‘p yillar davomida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari o‘rtasida bilimlarni tarqatish shakli sifatida maslahat xizmatlarini ko‘rsatish shakli mavjud. Ushbu xizmatlarning yaratilishiga zarur ta‘lim va ish tajribasiga ega bo‘lmagan fermer va dehqonlarga samarali boshqaruv

¹⁶ DX - dehqon xo‘jaliklari, ATYE - aholining tomorqa yer egalari.

va ilm-fan yutuqlarini o‘z xo‘jaliklarida tatbiq etishga ko‘maklashish zarurati sabab bo‘ldi. Dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari aholini oziq-ovqat bilan ta‘minlash uchun intensiv ishlab chiqarishni olib borishlari, ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini qo‘llashlari zarur. Ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlardan uzoqligi va ular bilan aloqaning yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilar fan-texnika taraqqiyotidagi yangiliklar va innovatsiyalarni kuzatib, o‘z xo‘jaligida joriy etishda qiynalmoqdalar. Buning uchun maxsus xizmatlarni onlayn shaklda etkazib berish zarur bo‘ladi. Hozirgi vaqtda onlayn maslahat tizimini rivojlantirish kommunikatsiyaning eng keng tarqalgan vositasi bo‘lmoqda. Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari faoliyatini barqaror rivojlantirishda agrobiznes kichik shakllarini va eko-korxonalarni ustuvor tashkil etish, ijtimoiy sheriklikka ko‘ra hamkorlikni jadal rivojlantirish hamda ishlab chiqarishning “Smart agriculture” modelini joriy etish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq (3-rasm).

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun tashkil etilgan online platformaga
XUSH KELIBSIZ

Kutiladigan natija

MASLAHAT:

1. Bu texnologiyani amalga oshirish natijasida suvni tejash 70%gacha, irrigatsiya kanallaridan suvni ekotibga yetkazishi 37 foizdan 90 foizgacha oshishi hamda suvdan og‘irona foydalanishni 97 foizgacha yetishi kutilmoqda
2. Suv xo‘jaligi tarmog‘i elementlarini onlayn monitoring qilish va boshqarish uchun yangi avlodagi radioqurilmalar bazasida alohida SCADA telemetriya va teleboshqaruv tizimi tashkil etiladi
3. Avstraliyaning «Rubicon Water Pro 150» kompaniyasi suv xo‘jaligida qadriyatli texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha dunyoning yetakchi kompaniyalaridan biri sanaladi. Kompaniya tomonidan dunyoning 15 davlatida 30 mingdan ortiq avtomatlashtirilgan suvni boshqarish shlyuzlar o‘rnatilgan bo‘lib, ushbu shlyuzlar jami 1,5 million gektar sug‘oriladigan yerlarni qamrab oladi

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

100

№	№	№	№	№	№	№	№
№	№	№	№	№	№	№	№
100	In-Vitro, Tomorqa xizmati, Rubikon water	Kartoshka	25000	235,7	40000	19000	190
100	In-Vitro, Tomorqa xizmati, Rubikon water	Sabzi	6500	264,7	10000	30000	224

3-rasm. Ishlab chiqarishning raqamlashgan “Smart agriculture” modelining ko‘rinishi¹⁷.

